

Date: 27th March-2026

XIX-XX ASR O'ZBEK XALQI ETNOGRAFIK TADQIQODLARIDA URF-ODAT
VA SAN'ATNING O'RNI

Buxorova Marjona Murodulla qizi

„Shahrisabz” davlat muzey-
qo'riqxonasi rassom-ta'mirchi

Anotatsiya: Ushbu maqolaning yozilishdagi maqsadi o'zbek xalqining etnografik hayotini, tarixini o'rganish, milliy urf-odat va qadriyatlarning ildizini anglashga qaratiladi. An'analarning tarixi haqida tushunchaga ega bo'lish, buyuk o'tmishni asrab qolish, milliylikni qadrlash va kelajak avlodga urf-odat, an'analarni, bayram-marosimlarni kamchiliksiz yetgazish o'zbek xalqining burchidir.

Аннотация: Цель написания данной статьи — изучение этнографической жизни и истории узбекского народа, а также осмысление корней национальных обычаев и ценностей. Понимание истории традиций, сохранение великого прошлого, уважение национальной идентичности и передача будущим поколениям обычаев, традиций и обрядов без искажений являются долгом узбекского народа.

Annotation: The purpose of this article is to study the ethnographic life and history of the Uzbek people, as well as to understand the roots of national customs and values. Gaining an understanding of the history of traditions, preserving the great past, valuing national identity, and passing on customs, traditions, and ceremonies to future generations without loss are the duties of the Uzbek people.

Annotaciya: Usı maqalanı jazıwdan maqset — ózbek xalqınıń etnografiyalıq turmısın hám tarihın úyreniw, sonday-aq milliy urp-ádette hám qádiriyatlardıń tamirlarin ańlawdan ibarat. Ánanalardıń tarihi haqqında túsiniqke iye bolıw, ulı ótkenni saqlap qalıw, milliylikti qádirlew hám keleshek áwladqa urp-ádette, ánanalardı, bayram-márasimlerdi kemshiliksiz jetkiziw ózbek xalqınıń bórishi bolıp esaplanadı.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, milliy, an'analar, urf-odat, etnografiya, hunar, san'at, o'zbek xalqi, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy, davr, qabila, elat, millat, kiyim-kechak, qadimiy, yangi davr, bayram-marosimlar, etnik tarix, Sharq mamlakatlari, avlod- ajdodlar, shoyi, adras, atlas, adras, ipak, gazlama, to'qimachilik, do'ppido'zlik, chopon, do'ppi

Ключевые слова: Средняя Азия, национальный, традиции, обычаи, этнография, ремесло, искусство, узбекский народ, культурно-просветительский, духовный, эпоха, племя, род, народность, нация, одежда, древний, новый период, праздники и обряды, этническая история, страны Востока, предки, шелк, адрас, атлас, адрас, шелковая ткань, ткачество, тибетейное ремесло, чапан, тибетейка.

Keywords: Central Asia, national, traditions, customs, ethnography, craftsmanship, art, the Uzbek people, cultural and educational, spiritual, period, tribe, clan, ethnicity, nation, clothing, ancient, modern era, holidays and ceremonies, ethnic history, Eastern countries, ancestors, silk, adras, atlas, adras, silk fabric, weaving, skullcap-making, chapana, skullcap.



Date: 27th March-2026

Kalit sózler: Orta Aziya, milliy, dástúrlar, urıp-ádetler, etnografiya, húnershilik, öner, ózbek xalqı, mádeniy-ağartıwshılıq, ruhiy, dáwir, qáwım, ruu, etnos, millat, kiyim-keşek, qadimiy, jańa dáwir, bayram-márasimler, etnik tarih, Sháırıq mamlakatlari, áwlad-ata-babalar, shoyi, adras, atlas, adras, ipak, gazlama, toqımashılıq, do‘ppido‘zlik, chopan, do‘ppi.



Asosiy qism: Urf-odat, marosim, bayram kabilar a n 'ananing tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson hayotida bo'lib o 'tayotgan muhim voqeani turmushda burilish yasaydigan katta „nuqtalar“ni nishonlash, belgilash ehtiyoji marosimlarni keltirib chiqargan bo'lsa, keyinchalik buni avlodlarning takrorlab turishi odatga, odatdan esa an'anaga aylanib borgan. Shu tariqa har bir millatning o 'ziga xos an 'analar silsilasi shakllangan. Har bir millatning an'analarida o 'sha xalqning kelib chiqish tarixi, dunyo qarashi, madaniyati aks etib turadi³⁸. Har bir xalq yoki elat, awalo, tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib turadi. Etnografiya ijtimoiy fanlardan biri bo'lib, xalq va elatlarning kelib chiqishini, etnik tarixini, madaniy-maishiy turmush tarzini, an 'anaviy mashg'ulotlarini o 'rganadi. Etnografiya — xalq haqidagi fan. Etnografiya atamasi qadimgi yunon tilidagi — „etnos“ — xalq, „grafos“ — yozish so'zlarining birikuvidan tashkil topgan bo'lib, uning tub ma'nosi „xalqlarni ta 'riflash, „elshunoslik“ demakdir. Ayrim mamlakatlarda etnografiya, etnologiya, madaniy antropologiya yoki xalqshunoslik nomlari bilan ham yuritiladi. Ba'zi olimlar etnografiya — ta 'riflovchi fan, etnologiyani esa nazariy fan deb, izohlashga urinadilar. Ko'pchilik olimlar bu ikkala atama ham tarixiy fan tarmog'ini anglatadi, degan fikrni bildirmoqdalar. Shubhasiz, xalqlarning o 'ziga xos xususiyatlari, o'zaro tafovuti yoki umumiyliigi va o 'xshashligini jiddiy tadqiq qilishda etnografiya fanining ahamiyati nihoyatda kattadir. Etnografik bilimlar eng qadim zamonlardan paydo bo'lgan bo'lsa-da, lekin mustaqil fan sifatida XIX asming o 'rtalarida vujudga kelgan. Dastlab bu atamani XVII asr boshlarida nemis yozuvchisi Iogann Zummer ishlatgan, XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida (1808-yilda) shu nom bilan maxsus jurnallar chiqa boshlagan. „Etnografiya“ atamasi mashhur fransuz olimi, tabiatshunosi va fizigi Jan Jak Anper tomonidan 1830-yilda taklif qilingan. Dastlabki etnografik ma'lumotlar ibtidoiy jamiyat tashkil topgandan keyin qabilalar o'rtasida aloqalar o'rnatilishi natijasida asta-sekin to'plan boshlagan. O'sha davrdayoq ayrim qabila, elat , xalqlarning maishiy turmushi, etnik xususiyatlarini o'rganish , ularni aniq tushunish inson hayotidagi muhim ehtiyojlarni qondirish bilan vujudga kelgan. Uzoq yillar avval Sharq mamlakatlarida qo'ni-qo'shnilar bilan samarali savdo-sotiq munoabatarini o'rnatish, diplomatic aloqalarni mustahkamlash yoki qarshi urushlar olib borish uchun dastavval o'sha millatning etnografik ma'lumotlarga ega bo'lish zarur edi. O'zbeklarning eng qadimiy ajdodlari haqida ma'lumotlar juda kam.

XV-XVI asrlr O'rta Osiyo mualliflarining asrlarida o'sha davrdagi qozoqlarnig o'zbeklar yoki o'zbek-qozoq deb nomlanishi ham diqqatga sazovordir. Mazkur etnonimlarning ko'pchiligi hozirgacha ayniqsa Janubiy O'zbekistonda saqlanib kelgan.

Date: 27th March-2026



Ammo ularning o'zbek etnognezidagi ishtirokchi bir xil bo'lmagan. Bu urug'-qabilaviy birikmalar va elatlarning maishiy turmushi, urf-odat yo marosimlari, joylanishi va ijtimoiy-siyosiy tuzumi to'g'risida ma'lumotlar o'rta asr mualliflari Mahmud Qoshg'ariy, Xondamir, Hofizi Tanish Buxoriy, Mahmud ibn Vali, Narshaxiy, Abulg'oz va boshqalarning asarlarida keltirilgan.

O'rta asrlarda esa butun O'rta Osiyo o'ziga xos tarixiy-etnografik va xo'jalik-madaniy tiplar yaratgan mintaqada yashovvchi xalqlarning kelib chiqishi va tarixiy taqdiri ham umumiy xarakterga ega. Tarixda umumiy etnik ildizga ega bo'lgan, muayyan hududda joylashgan, ammo turli til, millat-elatlar doimo o'zaro yqin munosabatlarda bo'lib, aralashib kelgan va uzoq murakkab tarixiy jarayonni o'zbek xalqi ham uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib, juda ko'p milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'ldi.

O'tmish ajdodlarimiz an'analari, qadriyatlari asrdan-asrga, avlodlardan avlodga saqlanib, taraqqiy topib keldi. Xususan, milliy -madaniy xususiyatlarimizning saqlanib qolishida xalq og'zaki badiiy ijodining roli beqiyos bo'ldi. Jumladan, xalqimizning o'ziga xos urf-odat va marosimlari, urf-odat, marosim, bayram kabilar etnik an'analarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson hayotida bo'lib o'tayotgan muhim voqeani, turmushda burilish yasaydigan katta „nuqtalar“ni nishonlash, belgilash ehtiyoji marosimlarni keltirib chiqargan bo'lsa, keyinchalik buni avlodlarning takrorlab turishi odatga, odatdan esa an'anaga aylanib borgan. Shu tariqa har bir millatning o'ziga xos an'analar silsilasi shakllangan. Har bir millatning an'alarida o'ziga xos xalqning kelib chiqish tarixi, dunyoqarashi, madaniyati aks etib turadi. Ijtimoiy hayot taraqqiy etishi bilan uning talablariga javob bermaydigan an'alar, marosimlar va bayramlar asta-sekin

unutib boshlanadi.

Yangi davr (XIV-XIX asrlar) davomida o'zbeklarning etnik shakllanishi davom qilib o'zlarining urug'-qabilaviy nomlarini to bizning asrimiz boshlarigacha qisman saqlab kelganlar. Ayrim o'zbek qabilalari o'troq dehqonchilikka to'la o'tmagan ko'chmanchilik xo'jaligi va xurmush an'alarini saqlab yarim o'troq holatda yashaganlar. Ular tiplaridagi (shevasidagi) farq jihatdan ancha ajralib turganlar. Mazkur subetnoslar XIX asr oxiri-XX asr boshlarida o'ziga xos maishiy turmush, urf-odat va tipdagi xususiyatlari bilan o'zaro farq qilsada, yagona o'zbek elati ekanligini isbotlovchi belgilarni saqlab o'zlarini "o'zbek" deb nomlaganlar.

Ammo Xiva xonligida yarim ko'chmanchi o'zbeklarning o'troq holatga o'tishi XIX asr o'rtalarigacha, Buxoro amirligida esa asr oxirlarigacha davom etib kelgan³⁹.

Buxoro amirligidagi aholisining ko'p qismi mang'it va qo'ng'iroq qabilalarida bo'lgan. Ayrim qabilaviy birikmalar aslzoda beklar deb hisoblab, boshqalardan ajralib turgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida etnografik hayot tarzi aholining ko'plab hunr o'rganishga, rivojlantirishga va urf-odatlar bilan mujassamlashishga turtki berdi.

Temirchilik, zargarlik, to'qimachilik, kulolchilik, ganchkorlik, zardo'zlik, kashtachilik, do'ppido'zlik kabi hunarlar etnografiya rivojiga katta hissa qo'shdi va san'at darajasigacha

Date: 27th March-2026

ko'tarildi. Yuqorida aytib o'tilgan kasb-hunarlar milliy an'ana va urf-odatlariga ham ta'sir etdi. Bayram, tadbirlar azaliy an'analarning, milliylikning yuziga ayladi.

Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy foyda keltirishi mumkin bo'lgan, kishilarning estetik talablarini qondirishga xizmat qiladigan an'analar taraqqiy topib boraverishida milliylik, sa'nat va hunar bir –biriga uzviy bog'liqdir.

O'zbek zargarligi ham qadimiy davrlardan o'zining ajoyib san'ati bilan keng tarqqalgan. Xorazm, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Toshkentliklarning bosh va ustki kiyimlarga osiladigan bezaklar, zirak sirg'alari, uzuklari, bilaguzuklari bilan dong taratgan va urf-odatlar ko'rki bo'lgan.

O'zbek xalqi an'analari juda qadimiy bo'lib, ularda ajdodlarimizning kurashi, mehnati hamda turli sohalarida erishgan ma'naviy va madaniy yutuqlari o'z ifodasini topgan. Qadimdan takrorlanib, muttasil davom ettirib kelinayotgan an'alarimiz milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. An'analar xalqimizning o'ziga xos kiyim-kechagi, milliy taomlari, irim-sirimlari, urf-odatlari, bayramlari, marosimlari hamda ularga aloqador tarzda yaratilgan folklor, amaliy san'at, qo'l mehnatlari, tasviriy san'at va hunarmandchilik namunalarida namoyon bo'ladi. XIX asr oxiri XX asrda O'zbekistonda xalq amaliy san'ati yanada yuksaldi. XIX asr oxiri XX asrda paydo bo'lgan dastgohli rangtasvir

I. Kazakov, S. Yudin va boshqalar ijodida etnografizm va maishiy turmushni ko'rsatib berishga urundilar. Bu rivojlanish va taraqqiyot davri barcha sohalar oldiga sifatli raqobatbardosh kadrlar tayyorlash talablarini qo'yimoqda. Bu tasviriy san'atga ham tegishlidir. Rassomlar va san'at asarining qadri ham milliy an'analarning obro'sini oshirishga uning mukammal badiiy tuzilishi (kompozitsiyasi), sifatli ko'rinishi, san'at bozoridagi raqobatbardoshligi, mahoratli ijro, sifatli ashyolardan to'g'ri va unumli foydalanish bilan birga, ko'tarilgan mavzuning dolzarbligi, milliy qadriyatlarni e'zozlash, tarixiy, ilmiy manbaalar bilan bog'lanishini oshirmoqda. Ayniqsa o'zbek rassomlarining ijoj namunalari yaqqol ko'zga tashlangan davrda ko'p xollarda rassomlar naturadan olgan taassurotlarini hikoya qilishga berilib, kartinada shu to'plagan taassurotlari yig'indisini berishga e'tibor qaratilmagan. Bu o'sha davr rangtasvirining karakterli xususiyatidir. An'anaviy xalq turmushi ko'pincha me'morlik, jonli, shovqin-suronli bozorlar, to'y-marosimlar, choyxonada osoyishta choy ichish fonida tasvirlanadi. Rassomlarni kishilar egnidagi sharq kiyim-kechagiga xos serxashamlilik va ranglarga boylik ko'proq o'ziga tortadi. Bu xususiyatlar A. Usupov, L. Bure, R. Vommer, I. Kazakov asarlarida ko'rindi.

30-yillarda P. Benkov bilan birgalikda N. Kashina, Z. Kovalevskayalar muvaffaqiyatli izlanishlar olib bordilar. Mahalliy rassomlardan A. Abdullaev, B. Hamdamiy, A. Toshkenboev, Z. Saidnosirova, L. Abdullaev, R. Temurovlar o'z izlanishlarini boshladilar.

XX asr boshlarida yirik shaharlarda rassomlik san'at jilg'lari bilan birga to'qimachilik va ipakchilik bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar bo'lib mahsulotlar bozorlarga chiqarilgan. Tola ishlab chiqaruvchi va to'qimachilardan tashqari bir necha



Date: 27th March-2026

kasb sohalari- bo'yoqchilar, pardozchilar, tandachilar, chitgarlar, (gul bosuvchi) va hokazolar bo'lgan.

Dehqon xo'jaligida xotinlar paxta tolasidan ip yigirganlar va oddiy daastgohda gazlama to'qiganlar. To'qimachilikda aholi orasida paxta tolasidan ip gazlama to'quvchilar bilan boshqa xil gazlama to'quvchilar farqlangan. Ular turlariga qarab turlarga bo'lingan: alacha, bo'a, kalama, boqasam, shoyi (atlas), adras, baxmal(duxoba), banoras va xokazolar. Zarafshon va Farg'ona vodiylarida qish paytlarda to'qimachilik bilan erkaklar ham shug'ullanishgan. Eski xalq kiyim-kechaklaridagi o'zgarishlar asosan asrimiz boshlarida sezilarli ravishda bilindi va transformatsiya asosan shaharlarda sezila boshladi. Bu bilan birga ipakchilik va ipak gazlama to'qish hunari ham butun Turkistonda yuksak drajaga ko'tarildi. O'zbek an'anaviy ipak gazlamasiga: kanovis, shoyi, xonatlas, yariim ipak gazlamasiga: beqasam, banoras, adras kabilar kiradi. Bunday beqiyos ipak matoardan o'z davrida asosan boy tabaqalar uchun liboslar tikilgan. Ayniqsa, Buxoro adrasi nihoyatda mashxur bo'lib, Xiva, Toshkent, Turkmaniston, Qashqar, Afg'oniston va qo'shni dashtdagi ko'chmanchi elatlarga xarid qilingan. Adras va shoyi to'qishda Samarqand va Marg'ilon juda tanilgan. Tola va ipak ipidan asosan atlas, gul bosilgan turli ro'mol va belbog' ishlab chiqarganlar.

Tikuvchilik bilan esa faqat ayrim ustalar shug'ullangan. Chunki ko'p oilalarda kiyim-kechkni uyda ayollar tikishgan. Ammo Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Qo'qon, Xiva, Toshkent kabi shaharlarda maxsus chopon tikadigan (chopondo'z, jamado'z) kishilar bo'lgan.

Milliy an'anallarni boyituvchi yana bir kasb do'ppido'zlik ham rivojlangan va Chust, Qo'qon, Maqrg'ilon, Samarqand, Xorazm, Shahrisabz, Surxondaryo do'ppilari shakli, kashta uslubi, gul naqshi, rangiga qarab farqlangan.

O'zbeklarda boshqa Sharq xalqlaridek hurmatli mehmonlarga sarpo kiygizish odati qadimdan saqlanib kelgan. Chopon, do'ppi va belbog'i bilan to'y va marakalarda qarindosh-urug'larga, hurmatli mehmon va xizmatkorlarga hadya qilingan. Shuning uchun chopondo'zlik juda zo'r taraqqiy qilgan va choponlar xatto chet el bozorlariga ham chiqarilgan.

O'rta Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklari ko'p asrlik tarixga ega. Har bir elat va etnik guruhlarining o'ziga xos xususiyatli bosh-oyoq kiyimlari bo'lsa-da, mintaqada yashovchi etnoslar umumiy xarakteridagi sarpo mavjudligi, ularning tarixiy taqdiri, madaniyati uzoq davr o'zaro yaqin bo'ganligidan dalolat beradi.

Hozirgi o'zbek sarpolari zamonaviy tipda bo'lib, ayniqsa, ovrupacha kiyim-kechaklarning kirib kelishi bilan tavsiflanadi. Milliy kiyimlar ko'proq qishloqda, alohida ayollar sarposida ancha mustahkam saqangan. Ayollar sarpsoda kelinlik uchun tikiriladigan ansanbl va milliy liboslar an'anaviy urf –odatlarining ildizini mustahkamlaydi va kelinlik ko'rkiga ko'rk qo'shadi. Qizlik, kelinlik, ayollik, momolik davrlarida milliy an'analar, marosimlar bilan bog'liq o'z davrining kiyim-kechak turlari shakllangan.

An'anaviy o'zbek kiyim-kechagi asosan ustki ko'ylak, ishton va chopondan, boshga do'ppi, oyoqqa kalish- mahsi va etikdan iborat bo'lgan. Erkak- ayol va katta-



Date: 27th March-2026

kichiklar kiyimlari bichimning deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba`zan qaychisiz va ulgusiz yaxlit matodan yirtib tikilgan.

Ayniqsa, keyingi paytlarda o`zbek ayollarni yaltiroq kumush, tilla ipli gazlamakardan zamonaviy modaga moslashtirilib kiyim tikirib kiymoqda. Ammo hozirgacha ayollarning eng sevimli va keng tarqalgan kiyimi rang- brang, chiroyli xon atlas va boshqa yupqa ipak matodan tikilgan.

Eski odaga ko`ra salla ham urfda bo`lgan va ayol birinchi farzand ko`rgandan so`ng o`ragan. Keyingi vaqtlarda ona birinchi nabira ko`rgaach, salla o`rash odati paydo bo`lgan. Salla o`rash maxsus irimlar bilan qadimiy davrlardan kiyilgani to`g`risida tarixiy ma`lumotlar mavjud.

Ayollar keyinchalik an`anaviy bosh kiyimlardan voz kechib, xar xil rangdagi va turli materialdan to`qilgan ro`mol yopa boshadilar. Odat bo`yicha turmushga chiqqan ayol boshini ro`molda o`rashi shart bo`lgan (boshi yopiq) degan ma`noda. Yoshi katta ayollar oq doka ro`mol o`rash odati hozirgacha saqlangan. Hozirgi kunda ko`pchilik qizlar va ayollar bosh yalang zamonaviy turmushlarga o`tganlar. Soch o`rimiga kelsak, ilgari qizlar, ayollarning soch turmagi farqlangan. Qizlar va kelinchakar (bola tuqqanigaacha) da qirq o`rim soch, ayollarda ikki o`rim soch qo`yish odat bo`lgan.

Ayollar orasida qadimdan o`ziga oro berish, atir sepish, qosh- ko`zni bezash odat bo`lgan. Husinni ochish, yana ham go`zallik hosil qilish maqsadida o`zbek ayolari o`sma, xina, upa-elik surish, o`ziga zeb berish, gul suvi bilsn ynaga qarab pardozlash odati keng tarqalgan. Xalq orasida :” Onangni otangga bepardoz ko`rsatma” – degan ibora bejizga aytilmagan⁴⁰. Shu yo`sinda davom etib kelayotgan o`zbek xalqi etnik urf-odatlar va san`at bir-biri bilan chambar-chas bog`liq. O`zbek etnografiyasining hayot tarzi, marosim-tadbirlari, to`y-marakalari, urf-odatlari turli hunarmanchilik sohalari va san`at namunalari taraqqiyotiga katta hissa qo`shmoqda hamda milliy an`analar, azaliy qadriyatlar saqlanishida o`rin egalladi.

Xulosa

Xalq etnografik davrning siyosiy-madaniy hayotini ham o`zida teran aks ettiradi. Uyg'onish davrida yaratilgan turli o`zbek urf-odat, an`analari xalqimizning o`z-o`zini anglashdan iborat intilishlari taqozosiga ko`ra vujudga keldi. Bu jarayon tarzida ming yillar davomida sodir bo`lgan, asosan, XIX asrning so`nggi choragida izchil bir yo`nalishga kira bordi va XX asrda etnografik an`analar to`la -to`kis barqaror hodisaga aylandi. Zero, etnografik tarixni to`plash, milliylikni, an`analarni asrab qolish, o`rganish va ulardagi g'oyalardan ilhomlanib yangi

asarlar yaratish, amaliy vat as`viriylar san`at asarlarida namoyon qilish va rivojlantirish bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish

barcha davrlarda ham dolzarb masalaga aylangan edi. Xulosa o`rnida aytish joizki, o`zbek xalqining ma`naviy merosini, boy tarixi va milliyligini qadrlashga katta e`tibor qaratilmoqda va bu o`z samarasini ko`rsatadi.



Date: 27th March-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O.Safarov, D.O'rayeva, M.Qurbonova. "O'zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori" Toshkent-2007-B (3-7-11)
2. ИСО ЖАББОРОВ. "Узбек халки
Этнографияси" ТОШКЕНТ «ЎҚКТУВЧИ» 1994- Б (163-177-192)
3. S. O. Mirzayev. " TASVIRIY SAN'AT TARIXI " Andijon -2017 – B 68.
4. SOYIBJON TILLABOYEV, AKBAR ZAMONOV. "O'ZBEKISTON TARIXI " TOSHKENT-2019
5. SABIROV MIRHAMID MUXAMEDJANOVICH "RANGSHUNOSLIK VA KOMPOZITSIYA ASOSLARI " Toshkent-2011. –B (3-7)
6. www.kutubxona.com.
7. www.ziyouz.com kutubxonasi.